

Asal va asalarining bugungi kundagi ahamiyati

Ubaydullayeva Shohista Hidoyatullo qizi

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti 2-bosqich
talabasi email-shohista8108@gmail.com*

Kalit so'zlar: asal, asalari., gullar, nektar, nish, ko'z, ishchi ari, vitaminlar, oziq-ovqat mahsuloti, qon bosimini ko'taradi, oila, mum.

Annotatsiya: Ma'lumki asal ming dardga davo hisoblanadi. U yuqori quvvatli oziq-ovqat sifatida dasturxonga fayz-baraka bag'ishlaydi. Mamlakatimizda parrandachilik, baliqchilik sohalar kabi asalarichilikka ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Asalning shifobaxsh xususiyatlari juda ko'p. Tabiiy ne'mat inson organizmida to'liq o'zlashtiriladi. Gullar nektarlaridan yig'ilgan bol tarkibidagi moddalar salomatlikni mustahkamlaydi. Asalni muntazam iste'mol qilgan insonga kuch-quvvat uzoq umir bag'ishlaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra dunyoda shirin va to'yimligi, foydaliligi jihatidan asalning o'rnini bosadigan ne'mat yuq ekan. Tabiiy sof asal qariyb 300 xildan ortiq kasallikni davolashi ilmiy o'rganilgan. Asal yordamida semiz odamni ozdirib, ozg'inni semirtirish mumkin yoki qon bosimini tushurib-oshirish mumkin. Faqat asaldan to'g'ri foydalanishni bilmoq kerak. Asalning turi asalarining qanaqa o'simliklardan shira olganligiga bog'liq, as alga qaysi o'simlik shirasi asos bo'lgan bo'lsa asal ham shu o'simlik nomi bilan sifatlanadi. Akatsiya asali, paxta asali, beda asali, kungaboqar asali, va hokazolardir. Bu asalarining har biri o'ziga xos mazasi, hidi va rangi bilan bir-biridan ajralib turadi. Asalning tarkibida juda ko'p vitaminlar va mikroelementlar bor. Asal tarkibida tiamin, riboflavin, askorbin, pantoten kislota, niatsin, pirodonsin, biotin, retinol, tokoferol kabilar 0,1-30 mkg.gacha tashkil etadi. Xususan, tarkibida mikro va makroelementlarning borligi asalning sifatini yanada boyitadi. "Asal" yoki "bol" — ishchi asalarilar o'simliklar gulidagi shira (nektar)ni organizmida qayta ishlash yo'li bilan hosil qiladigan shirin suyuqlik. Asalarilar asalni uya kataklariga o'zlari uchun oziq qilib g'amlaydi. Asal o'z tarkibiga ko'ra nektardan farq qiladi. Asalda 80 % dan ko'proq uglevodlar (glukoza, fruktoza), 0,4 % kul, 13 — 20 % suv bo'ladi. Asalda odam uchun foydali moddalarning 70 dan ortiq turi bor. Shuningdek, asalda mineral moddalar: kalsiy, natriy, kaliy va boshqalar; mikroelementlar, organik kislotalardan olma, limon kislotalari, vitaminlar (V2, V6, RR, C, E, K) borligi aniqlangan. Tabiatdan olinish manbaiga ko'ra gul (nektar) va shira (o'simlik barglari va poyalaridan ajraladigan shira) asaliga bo'linadi. Guldan olingan asal ham o'simlik turiga qarab beda, yantoq, kungaboqar, g'o'za va boshqalarga ajraladi. Asal o'zining ta'mi, hidi, rangi jihatidan, shuningdek qaysi faslda qanday o'simlik gulidan yig'ilganligiga va joyi

(tog‘, o‘rmon, vodiya)ga qarab ham farqlanadi. Eng yaxshi asal — tog‘ asali, chunki u turli dorivor gullardan yig‘iladi. Oq akatsiya, beda, olma, shaftoli va boshqa o‘simliklar gulidan to‘plangan asal ham sifatli, oftob kam tushadigan o‘rmon gullari va yetishtirishda turli zaharli dorilar sepiladigan texnika o‘simliklari, masalan, kanopdan olingan asal ancha sifatsiz hisoblanadi. Asal mumkatalardan maxsus asalajratkich moslamalar bilan ajratib olinadi. Asal qimmatli oziq-ovqat mahsuloti, uning 1 kilogrammida o‘rtacha 3200 kaloriya energiya bor. Asaldan tibbiyotda qadimdan dori-darmon sifatida foydalanilgan. Hozir farmatsevtika sanoatida turli dori-darmonlar ishlab chiqariladi. Asalning o‘zi turli kasalliklarga parhez va davo vositasi tarzida beriladi. XX asrning 60-yillaridan boshlab tibbiyotda asal bilan davolash usullari — apiterapiya shakllandi. Asal oziq-ovqat sanoatida ham ishlatiladi.



Asalari, bolari (*Apis mellifera* L.) — arilar oilasining bir turi. Asalari vatani Janubiy Osiyo hisoblanadi. Hozirgi davrda janubiy kengliklardan Chekka Shimolgacha tarqalgan. Asalarilar, asosan, oila bo‘lib yashaydi. Bir oila bir ona (xalq tilida „podshosi“ deb ham yuritiladi), bir necha ming ishchi va bir necha yuz erkak asalaridan iborat. Ona asalari tanasi uzunligi 20 — 25 mm, vazni 200 — 250 mg, bahordan kuzga qadar tuxum qo‘yish va oilani boshqalari vazifasini bajaradi. Qanoti tanasining yarmini qoplaydi, nektar, gul changini yig‘uvchi apparatining yukligi bilan farq qiladi. Ona asalarining jinsiy a‘zolari rivojlangan. 5 yilgacha yashaydi (tajribali asalarichilar onalari har ikki yilda yangilab turadilar). Bir sutkada 2 — 2,5 mingtagacha tuxum qo‘yadi. Otalangan tuxumlardan 21 kunda ishchi asalari, otalanmagan tuxumlardan 24 kunda erkak asalari chiqadi. Agar lichinkalarni ishchi asalarilar asalari suti bilan oziqlantirib tursa 16 kunda ona asalari chiqadi. Tuxumdan chiqqan ona asalari 7—8 kunda jinsiy balog‘atta yetadi. Erkak asalari tanasi uzunligi 15—17 mm, vazni 200 mg, qorin qismi to‘mtoq bo‘lib, oldingi qanotlari uzun, gul changi va nektar yig‘uvchi apparati, nayzasi yo‘q, ko‘kragi keng, hartumi qisqa. Bir oilada 80—100 tagacha erkak asalari bo‘ladi. Asosiy vazifasi ona Asalarini urug‘lantirish (asosan, havoda juftlashadi, urug‘lantirganidan keyin halok bo‘ladi). Ular uyada faqat yozda bo‘ladi, kuzda oilada urchish ishlari to‘xtashi bilan ularni ishchi asalarilar uyadan quvib chiqaradi. Ishchi

asalari tanasi uzunligi 11—15 mm, vazni o'rtacha 100 mg, jinsiy a'zolari rivojlanmagan, urg'ochi asalarilar bo'lib, yozda 35 — 40 kun, qishda 3 oy yashaydi. Bir oilada yozda 60 — 80 ming, qishda 10-15 ming ishchi Asalari bo'ladi, soatiga 60 km tezlikda ucha oladi, oiladan 2 — 3 km va undan ortiq masofaga uchib borib, nektar va gul changini yig'ish, nektarni asalga aylantirish, mum ishlash, lichinkalarni boqish, katak qurish, uyani qo'riqlash kabi ishlarni bajaradi. Asalarilar qadimdan qimmatbaho mahsulotlar bo'lgan asal, propolis, mum, ona asalAsalari suti, asalAsalari zahAsalari va boshqalarni olish, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlarini mevali bog'larni changlatish uchun boqiladi. Asalari oilasi bir mavsumda 140 — 150 kg asal to'playdi, bundan 100 kg Asalari ta'minotiga sarflansa, 40 — 50 kg asal ajratib olinadi. Asalari oila a'zolarining xizmat faoliyati o'zaro bog'liq bo'lganidan ularning birortasi ham o'zicha mustaqil hayot kechira olmaydi. Zotlari: O'rta Rossiya o'rmon (qoramtir) Asalari zoti (Asalari millifera) — eng ko'p tarqalgan zotlarga kiradi. Asalarilari yirik, asaldorligi yuqori, sovuqqa chidamli, har bir oiladan 100 kg gacha asal olish mumkin. 1964—70-yillarda O'zbekistonga keltirib sinalgan. Paxta ekiladigan yerlarda yuqori mahsuldorlikka erishildi. Uzoq Sharq asalari zoti — Uzoq Sharq (Primore, Xabarovsk)da ko'p tarqalgan. Zot Ukraina, O'rta Rossiya, Italiya va Kavkaz asalarilari ishtirokida yetishtirilgan, mahsuldorligi o'rtachalari Kraina kulrang Asalari zoti (Asalari carnica) — Yugoslaviya, Avstriya tog'larida keng tarqalgan. Tashqi ko'rinishdan Kavkaz tog'-qo'ng'ir asalarisiga o'xshaydi, mahsuldorligi o'rtachalari O'zbekiston chorvachilik ilmiy tadqiqot institutida asalarilar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild Toshkent, 2000-yil
2. N.F. Kraxotin "O'zbekistonda asalarichilik" T. Mehnat, 1985.
3. T. Sh. Akmalxonov "Asalarichilik" (maruzalar matnlari) T. 2000.
4. T. Sh. Akmalxonov, S. Sh. Isamammedov, B. A. Qahramonov. - "Asalarichilik amaliy mashg'ulot darslari topshiriqlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma" T. ToshDAU, 2000.